



IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI



O'ZBEKISTONDA
ISLON HAY'ATIDAKI
MARKAZI



*Imom
Hoturidir*
(870-944)






IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI



O'ZBEKISTONDAGI
ISLOM SIVILIZATSIYASI
MARKAZI



*Imom
Hotiridiy*
(870-944)



“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini kuchaytirishga alohida eʼtibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

IMOM MOTURIDIY – HIDOYATGA BOSHLOVCHI IMOM

Toʻliq ismi – Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy. Tarixchilar uning tabarruk nomini yuksak va sharaflı unvonlar bilan zikr qilgan. Musulmon olamidan chiqqan sanoqli allomalargagina Imom Moturidiyga berilgan ana shunday unvonlar nasib etgan. Alloma oʻz zamonasidayoq “Hidoyatga boshlovchi imom”, “Sunnat va hidoyat ahli peshvosi”, “Ahli sunna val jamoa bayrogʻini baland koʻtaruvchi”, “Xurofot va bidʼatga botgan uydirmalarni ildizi bilan qoʻporuvchi”, “Musulmonlar aqidasi isloh etuvchi”


kabi yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lgan.

Imom Moturidiy 870-yilda qadim Samarqandning Moturid qishlog'ida tug'ilgan. U dastlabki ta'limni otasi Muhammad ibn Mahmuddan olgan. So'ngra o'sha davrdagi boshlang'ich maktabda o'qigan. Keyin esa ta'limni Samarqanddagi Raboti G'oziyon masjidi huzuridagi madrasada davom ettirgan. Hayoti asosan Samarqandda o'tgan. Bu yerda ko'plab yetuk olimlardan saboq olgan.

Alloma Abul Hasan Rustufag'niy, Is'hoq ibn Muhammad Samarqandiy, Abdulkarim Pazdaviy va boshqa ko'plab mashhur olimlarni tarbiyalagan.

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyimul muhabbat" asarida Imom Moturidiyni "Sultonul muizzin", ya'ni "Faxriy olimlar sultoni", deya e'tirof etgan. Moturidiyning ustozlari Abu Nasr Iyoziy ilm majlislarida u yetib kelmagunicha darslarini boshlamay turgani rivoyat qilinadi.

Imom Moturidiy 944-yili Samarqandda vafot etgan va mashhur Chokardiza qabristoniga dafn qilingan.



ILMIY MEROSI

Imom Moturidiy tafsir, fiqh, aqida ilmlariga doir 15 ga yaqin nodir asar yozgan. Ulardan “Kitobut tavhid” va “Ta’vilotul Qur’on” kitoblari bizgacha yetib kelgan.

“Kitobut tavhid” (“Allohning yagonaligini isbotlash kitobi”) asari ilohiyot ilmidagi eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi. U moturidiylik aqidasi ga oid asarlarning birinchisi va asosiysi sanaladi. Mazkur asar yirik hajmli bo’lib, o’zida ahli sunna val jamoa aqidasi ning murakkab masalalarini to’liq qamrab olgan. Unda islom dinining asosini tashkil etuvchi aqida ilmi ning turli masalalariga oid eng to’g’ri fikrlar ilgari surilgan. Aqidada adashgan oqimlarning g’oyalari ilmiy nuqtayi nazardan tanqid qilingan.

Alloma “Ta’vilotul Qur’on” asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad qiladi va Abu Hanifaning ta’limotiga suyangan holda ish ko’radi. Mazkur kitobning ilmiy va amaliy ahamiyati juda yuqoridir. U Qur’oni karim tafsiri bo’yicha yozilgan dastlabki asarlardan bo’lib, aql va naql (oyat va hadislar) nuqtayi nazaridan sharhlangani bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, Qur’oni karim ahli sunna val jamoa aqidasi asosida tafsir qilingan.

TA'LIMOTI

Ahli sunna val jamoa musulmonlari aqidada ikki yirik alloma – Imom Moturidiy va Imom Ash'ariy asos solgan ta'limotga ergashadi. Imom Moturidiy o'z ta'limotini hanafiy mazhabiga asoslanib yaratgan bo'lsa, Imom Ash'ariyning ta'limoti shofeiy mazhabiga asoslangan. Lekin ikkala allomaning ham asosiy maqsadi yagona, unga erishish yo'llari mushtarakdir.

Imom Moturidiy hanafiylik ta'limotiga suyangan holda, davr talabidan kelib chiqib, uni rivojlantirdi va islom dini e'tiqodiy asoslarini tartibga soldi. Shu bilan u Movarounnahr islom ilohiyot maktabi rivojiga katta hissa qo'shdi.

Allomaning qarashlari va asos solgan ta'limoti “Kitobut tavhid” va “Ta'vilotul Qur'on” asarida o'z ifodasini topgan.

Imom Moturidiyning fikricha, insonlarning yaxshi va yomon ishlari Allohning xohish-irodasiga bog'liq holda, U Zotning roziligi yoki noroziligi bilan amalga oshadi. Alloh taolo insonni yaratib, ixtiyorni uning o'ziga bergan. Ya'ni, qiladigan ishlari Allohning ilmi bilan azaldan taqdiriga bitib qo'yilgan bo'lsa-da, unga tanlash ixtiyori berilgan. Imom Moturidiy buni “af'oli ixtiyoriy”, ya'ni “insonda iroda erkinligi” deb ataydi.

Imom Moturidiy islom ta'limotida ilk bor “bilish

nazariyasi”ni ilmiy asoslab berdi. Moturidiylikda asosan naqlga tayanilib, aql ulardagi ba’zi masalalarni anglashda yordamchi vosita hisoblanadi. Masalan, Imom Moturidiy “Alloh taoloni tanish aql bilan vojib bo’ladi”, deydi. Ya’ni, Qur’oni karimda bayon qilinganidek, osmonlar-u yerda va ularning orasida buyuk Yaratuvchidan, qudratining cheksizligidan dalolat beradigan ko’pdan-ko’p alomatlar bor. Inson aql yordamida ham o’sha narsalarni yo’qdan bor qilgan Yaratuvchi borligini anglashi lozim, deydi. Shundan kelib chiqadiki, inson aqli Alloh taolo tomonidan bandalarga ato etilgan ulug’ ne’matdir.

“Allohning makoni bormi?” deb savol berish xatodir. Alloh taolo dunyodagi barcha narsalarni, zamonni ham, makonni ham yaratgan Zotdir. Alloh yaratgan maxluqotlariga muhtoj emas. U biror makonda qaror topgan emas. Unga vaqt, zamon daxldor emas. Biror narsa Unga o’xshamas. Uning bilim va qudrat doirasidan hech narsa tashqariga chiqmas.

Ba’zi toifalar Qur’oni karim va hadislarda kelgan matnlarga sirtdan ma’no berib, Alloh Arshning ustida, osmonda, deydi. Alloh osmonda deb, dalil sifatida “U (Alloh) osmonda ham iloh, yerda ham ilohdir. U Hikmatli va Ilmli (zot)dir” (Zuxruf surasi, 84-oyat) oyatini, Alloh Arshning ustida deb, “Rahmon Arsh uzra istivo qildi” (Toha surasi, 5-oyat) oyatini keltiradi. Ammo ularning bu da’volarini ahli sunna val jamoa

mazhabi rad etadi. Chunki, ularning gaplari mutlaqo noto'g'ridir. Aslida oyatning mazmuniga qaralsa, Alloh osmonda yoki Arshning ustida, degan ma'no kelib chiqmaydi. Ularning bu noto'g'ri da'volariga ushbu oyatlarning o'zi javob bo'ladi.

Agar birinchi oyatga e'tibor beradigan bo'lsak, unda Alloh osmonda degan gap yo'q, balki "Osmon-u yerdagilarning ilohi Allohdur. U hikmatli va ilmi Zotdir", ya'ni Allohning osmonda ham, yerda ham ilohligi mavjud, osmon va yerdagi barchaning ilohi Allohdur, degan ma'no bor. Bu Alloh osmonda, degani emas.

Ikkinchi oyatga kelsak, unda ham Alloh Arshning ustida degan ma'no yo'q. Ahli sunna ulamolari ushbu oyatga "Alloh Arsh uzra oliy bo'ldi", deb ma'no beradi. Chunki, Alloh taolo O'zi yaratgan barcha narsalardan oliy bo'lgan Zotdir. Agar ular da'vo qilganiday Alloh Arshning ustida, deydigan bo'lsak, Xoliq (Yaratuvchi) bo'lgan Zot Allohni O'zi yaratgan maxluqqa (yaratilgan narsaga) muhtoj qilib qo'ygan bo'lamiz.

Aql jihatidan o'ylab ko'rilsa ham, agar Allohga makon nisbat berilsa, U Zot o'zi yaratgan makon ichiga kirib qolgan va O'zi yaratgan narsadan kichik bo'lib qoladi. Bu esa Alloh taologaga mutlaqo to'g'ri kelmaydi va biz doim aytadigan "Allohu akbar" – "Alloh barcha narsadan buyukdir, kattadir" jumlasiga ziddir.

Alloh taolo Xoliq (Yaratuvchi) Zotdir. Undan boshqa

hamma narsa yaratilgandir. Alloh taologa “Qayerda?” degan savol bilan makon nisbat berilmaydi. Uni biror narsa ko‘tarib turmaydi. Uning uchun old, orqa, ust, ost, o‘ng, chap tomonlar yo‘q. Uning uchun jamlanish va bo‘linish yo‘q. U hamma narsaning yaratuvchisi va egasidir. U hamma narsaga qodirdir.

Ahli sunna val jamoada imon eng zarur masalalardan biri hisoblanadi. Ba‘zilar “Imon – til bilan iqror bo‘lish, dil bilan tasdiqlash va arkonlarga amal qilishdir”, desa, jahmiylar, karromiylar kabi ba‘zi toifalar “Imon – faqat til bilan iqror bo‘lishdan iborat”, deydi. Ammo moturidiy-hanafiy ulamolarining e‘tiqodiga ko‘ra, imon – Allohning elchisi Muhammad sollallohu alayhi vasallam Allohning huzuridan keltirgan narsalarga til bilan iqror bo‘lish, qalban ishonish, tasdiqlashdir”.

Ushbu ta‘rifga ko‘ra, imonli bo‘lish uchun faqat til bilan iqror bo‘lish kifoya qilmay, qalb bilan tasdiqlash ham lozimligi hamda amallar imonga ta‘sir qilmasligi ma‘lum bo‘ladi. Chunki Qur‘oni karimda: “Ey Rasul! Og‘izlari bilan: “imon keltirdik” deydigan, (lekin) dillari imon keltirmaganlardan ... (bir qismi) kufr sari intilayotganlari Sizni xafa qilmasin!” (Moida surasi, 41-oyat) deb keltirilgan. Bundan faqat til bilan iqror bo‘lish imonni to‘liq qilmasligi kelib chiqadi.

Amallarning imonga ta‘siri masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Qur‘oni karimda “Ey imon keltirganlar!

Namoz (o'qish)ga turar ekansiz..." (Moida surasi, 6-oyat) va "Ey imon keltirganlar! Sizlardan oldingi (ummat)larga farz qilingani kabi sizlarga ham ro'za tutish farz qilindi, shoyad (u sababli) taqvoli bo'lsangiz" (Baqara surasi, 183-oyat) oyatlari nozil bo'lgan. Ushbu oyatlarda Alloh taolo bandalariga ular namoz o'qishi va ro'za tutishidan avval, ya'ni mazkur amallarni bajarmagan bo'lsa-da, "Ey imon keltirganlar! Ey mo'minlar!" deya xitob qilmoqda. Bu esa imon amallardan alohida ekaniga dalildir. Moturidiylik ulamolarining ta'kidlashicha, imonning sobitligi amallar bilan bo'lganida, islomning dastlabki davrida imon keltirgan va keyin nozil bo'lgan farz amallarni bajarishga ulgurmay vafot etgan mo'minlarning imoni mukammal hisoblanmas edi. Bu esa mantiqdan yiroqdir.

Shundan kelib chiqadiki, moturidiy-hanafiylar e'tiqodi bo'yicha imon – til bilan iqror bo'lish va qalb bilan tasdiqlashdan iboratdir.

Imom Moturidiy nazdida imon ziyoda ham va nuqsonli ham bo'lmaydi. Uning fikricha, insonning qalbida imon xuddi osmonda oy yagona bo'lgani kabi yagona bo'ladi. Agar u kamaysa, yarimta, ko'paysa, bir yarim yoki ikkita bo'lishi kerak. Bu esa mantiqqa ziddir. Ba'zi ulamolar imonning ziyodalashuvi haqidagi fikrni ma'qullaydi va amallarni ham imondan deb hisoblaydi. Agar shunday bo'lsa, unda hech kimning

imoni mukammal bo'lsa.

Moturidiylikning asosiy e'lonlaridan yana biri – Abu Muin Nasafiyning "Tafsiratul adilla" asarida ta'kidlanishicha, imonning asli tasdiqdir. Imon aslida boshqa toat-ibodatga doir amallar bilan mukammal bo'lmaydi. Amallarning ko'payishi – bu imonning ziyoda bo'lishi emas, balki toat-ibodatning ko'payishidir. Bu xuddi shunga o'xshaydiki, bir uyda o'n ta erkak kishi bo'lib, shu uyga bir ayol kirsam, uyda erkak kishilarning ko'payishi emas, odamlar sonining ko'payishi sodir bo'ladi. Bunda kimki, ayolning kirishi bilan shaxslar soni ortdi, desa, rost gapirgan bo'ladi. Kimki, erkak kishilar soni ortdi, desa, yolg'on gapirgan bo'ladi.

Moturidiy-hanafiylar ta'limotiga ko'ra, amallar imonga emas, uning qalbdagi nuriga ta'sir qiladi. Yaxshi amallar imon nurining ziyodalashishiga va gunoh ishlar – kamayishiga olib keladi.

Kishining bilishi zarur bo'lgan muhim masalalardan yana biri bu "gunohi kabira", ya'ni katta gunohlar mo'min insonning imonini ketkazmasligidir. Ba'zi adashgan toifalar, agar musulmon kishi gunohi kabira qilsa, uning imoni chiqib ketadi va kofir bo'ladi, deydi. Bu mutlaqo noto'g'ridir. Moturidiy-hanafiy e'tiqodi bo'yicha, agar musulmon kishi biror katta gunoh ishni qilib qo'ysa va uni halol sanamasa, kofir bo'lib qolmaydi. Ya'ni, o'g'rilik, zino, birovni o'ldirish kabi

katta gunohlardan biriga qo'l urgan kishi uni halol sanamasa, kofir bo'lmaydi.

Imom Moturidiy yashagan yillar islomiy ilmlar va g'oyalar gurkiragan davrga to'g'ri keldi. Ayni vaqtda barcha sohalar qatori islomiy ilmlarda ham hurfikrlik, o'z nuqtayi nazari va qarashlarini dalil va isbotlarga tayanib, emin-erkin ifoda qilish kuchaydi. Bu hol, o'z navbatida, jahmiylar, qarmatiylar, rofiziylar, murjiiylar, karromiylar va shu kabi boshqa oqimlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, oldinroq paydo bo'lib, ko'pchilik o'lkalar kabi Movarounnahrni ham qamrab olgan mo'tazila oqimining noto'g'ri qarashlari jamiyat a'zolari o'rtasida xilma-xil ziddiyatlar va ixtiloflarga sabab bo'ldi.

Imom Moturidiy esa bu kabi oqimlarga qarshi chiqib, islomning asl mohiyatini ochib berdi. Uning ta'limoti bugungi kun uchun ham g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etib, to'g'ri yo'ldan adashgan ba'zi guruhlarning g'oyalarini fosh etishda yaqindan yordam berib kelmoqda.



IMOM MOTURIDIY VA BUGUNGI ZAMON


Hozirgi kunda mamlakatimiz olimlari tomondan Imom Moturidiy hayoti va ilmiy merosi chuqur o'rganilmoqda. 2000-yili mamlakatimizda Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmuasi bunyod etildi. Toshkent va Samarqandda Imom Moturidiy ta'limoti va uning islom olamida tutgan o'rniga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Alloma hayotining turli qirralarini yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etildi. Imom Moturidiy merosini o'rgangan xorijlik olimlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

2020-yil 3-4-mart kunlari Samarqand shahrida "Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzuidagi xalqaro konferensiya yuqori saviyada tashkil etildi. Unda 15 mamlakatdan 55 nafar taniqli ulamo, muftiy, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchi qatnashdi. Jumladan, Misr Bosh imomi, Al-Azhar majmuasi shayxi Ahmad Tayyib boshchiligidagi 19 nafar misrlik nufuzli diniy arbobning ishtiroki konferensiyaning xalqaro maqomini yanada oshirdi.

2020-yil 11-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Ushbu markazda alloma merosi chuqurlashtirilgan tarzda o'rganilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yonida moturidiylik ta'limotini o'rganish maqsadida kalom ilmi maktabi, Qarshida aqida maktabi faoliyat olib bormoqda.

**Imom Buxoriy
xalqaro ilmiy-tadqiqot
markazi tomonidan
Abu Mansur
Moturidiyning
“TA'VILOTUL
QUR'ON” asarining
30-juzi ilk bor
o'zbek tiliga
tarjima qilindi.**



IMOM MOTURIDIY
HIKMATLARIDAN

Yurt obodligi va xalq farovonligini istasang, qo'ling
ochiq bo'lsin!

O'zgalarga hurmat-ehtirom ko'rsatish, og'irini
yengil qilish – boylikdan afzal.

To'g'ri yo'lning kaliti ilmdir!

Diningni ilm bilan asragin!

Tinch yashay desang, yomonlikdan yuz o'gir!

Birovning og'irini yengil qilish va xayr-ehson
qilishni buyuk ish deb bil!

Nifoq – ilmsizlik belgisi.

Birov maqtasa, kekkayma!

Shuhratparast bo'lma!

Qalbingni hasad o'ti bilan kuydirma!

O'zingni maqtashdan tiyil!

Hammadan yaxshi so'z o'rganishga intil!

Yaxshilik qilganingni aytib yuruvchi bo'lma!

Dushmaning bilan inoqlashgan do'stdan qo'rq!

Hasadgo'y do'stdan saqlan!

Hamma bilan oshno bo'lishga intil!

Ajdoding qadrini e'zozla!

Donolar suhbati – ikki dunyo saodatidir!

Yaxshilarni hayot payti ham, o'tgandan keyin ham
ziyosat qil!





Imom Moturidiy maqbarasi



**IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI**



**O'ZBEKISTONDAGI
ISLON SIVILIZATSIYASI
MARKAZI**

**Nashr uchun mas'ul: Ravshan ELMURODOV
G'oya mualliflari: Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODOV
Mas'ul muharrir: Otabek MUHAMMADIYEV**

**Muharrir: Anvar BOBOYEV
Musahhah: Husan NISHONOV
Dizayner: Muhammadiqbol SHUKUROV**

© IBXITM - 2022

